



CIVIL LEGISLATION IN THE DIGITAL AGE: SOME REFLECTIONS

Abdumuminova Salomat Otabekovna

National University of Uzbekistan

Second-Year Law Student

<https://doi.org/>

ARTICLE INFO

Received: 02nd June 2026

Accepted: 04th June 2026

Online: 05th June 2026

KEYWORDS

Digital age, civil
legislation, smart
contract, digital property,
electronic transaction,
remote identification,
online dispute resolution.

ABSTRACT

Drawing on the author's own observations and analysis, this article discusses trends in the development of civil legislation in the digital age. The purpose of the research is to examine the state of civil-law regulation of electronic transactions, smart contracts, digital property, and remote identification, and to offer reflections on their further development. The subject of the research is the civil legislation of the Republic of Uzbekistan, foreign experience, and scientific-theoretical approaches. Comparative-legal, systemic-structural, and formal-legal methods were applied. The author reflects on the consistent recognition of the concepts of "digital property" and "smart contract" in legislation, on clarifying the legal force of transactions concluded in electronic form, and on expanding opportunities for online resolution of civil disputes. The results may be used in research, law-enforcement practice, and the educational process.

ГРАЖДАНСКОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ: НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ

Абдумунинова Саломат Отабековна

Национальный университет Узбекистана

Студентка 2 курса направления «Юриспруденция»

<https://doi.org/>

ARTICLE INFO

Received: 02nd June 2026

Accepted: 04th June 2026

Online: 05th June 2026

KEYWORDS

Цифровая эпоха,
гражданское
законодательство,
смарт-контракт,
цифровое имущество,
электронная сделка,
дистанционная

ABSTRACT

В статье на основе личных наблюдений и анализа автора освещаются тенденции развития гражданского законодательства в условиях цифровой эпохи. Целью исследования является изучение состояния гражданско-правового регулирования электронных сделок, смарт-контрактов, цифрового имущества и дистанционной идентификации, а также формулирование предложений по их дальнейшему развитию. Предметом исследования являются гражданское законодательство



идентификация,
онлайн-разрешение
споров.

Республики Узбекистан, зарубежный опыт и научно-теоретические подходы. Применены сравнительно-правовой, системно-структурный и формально-юридический методы. Автор высказывает соображения о последовательном отражении в законодательстве понятий «цифровое имущество» и «смарт-контракт», об уточнении юридической силы сделок, совершённых в электронной форме, а также о расширении возможностей онлайн-разрешения гражданско-правовых споров. Результаты могут быть использованы в научных исследованиях, правоприменительной практике и учебном процессе.

FUQAROLIK QONUNCHILIGI RAQAMLI DAVRDA: BA'ZI MULOHAZALAR

Abdumo'minova Salomat Otabekovna

O'zbekiston Milliy universiteti Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Email: salomatabdumuminova@gmail.com

Tel: +99893 344 45 00

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21333136>

ARTICLE INFO

Received: 02nd June 2026

Accepted: 04th June 2026

Online: 05th June 2026

KEYWORDS

Raqamli davr, fuqarolik qonunchiligi, aqlli shartnoma, raqamli mol-mulk, elektron bitim, masofaviy identifikatsiya, onlayn nizolarni hal qilish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi raqamli davr sharoitida fuqarolik qonunchiligining rivojlanish tendensiyalari muallifning shaxsiy kuzatishlari va tahlili asosida yoritiladi. Maqolaning maqsadi elektron bitimlar, aqlli (smart) shartnomalar, raqamli mol-mulk hamda masofaviy identifikatsiya kabi institutlarning fuqarolik-huquqiy tartibga solinish holatini o'rganib, ularni yanada rivojlantirish yuzasidan mulohaza va tavsiyalar bildirishdan iborat. Tadqiqot predmetini O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligi, xorijiy davlatlar tajribasi hamda ilmiy-nazariy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy va formal-yuridik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Muallif "raqamli mol-mulk" va "aqlli shartnoma" tushunchalarini qonunchilikda izchil aks ettirish, elektron shaklda tuzilgan bitimlarning yuridik kuchini yanada aniqlashtirish hamda fuqarolik-huquqiy nizolarni onlayn tartibda hal qilish imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan fikr-mulohazalarini bildiradi.

Kirish

Insoniyat tarixi davomida har bir texnologik o'zgarish jamiyatning

ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini tubdan o'zgartirib kelgan. Bugungi kunda biz guvoh bo'layotgan raqamli inqilob esa



shunchaki navbatdagi qulaylik emas, balki hayot tarzimizni, o'zaro munosabatlارimizni va eng muhimi, huquqiy ongimizni qayta shakllantirayotgan ulkan to'fon desam mubolog'a bo'lmaydi. Tasavvur qiling, bir necha o'n yillar avval shartnoma tuzish uchun ikki tomon albatta bir joyga to'planishi, qog'oz hujjatlarni imzolashi va muhr bosishi shart edi. Bugun esa dunyoning ikki chekkasidagi insonlar soniyalar ichida, hatto bir-birlarini ko'rmasdan va ismlarini bilmasdan turib, million dollarlik bitimlarni amalga oshirmoqdalar.

Bu jarayonlar, tabiiy ravishda, fuqarolik muomalasining an'anaviy shakllariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Elektron shaklda tuziladigan bitimlar, masofaviy identifikatsiya vositalari, taqsimlangan reyestr texnologiyalari (blockchain) asosidagi aqlli shartnomalar hamda raqamli aktivlar bosqichma-bosqich fuqarolik-huquqiy munosabatlarning yangi va ajralmas qirralariga aylanib bormoqda. Bu shunchaki global trend emas, balki O'zbekiston Respublikasida ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xususan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi¹ strategiyasi hamda elektron hukumat, elektron tijorat sohasidagi qonun hujjatlari doirasida ushbu jarayonlar izchil qo'llab-quvvatlanmoqda.

Biroq, texnologiya shiddat bilan ilgarilab borayotgan bir paytda, huquq tizimi uning ortidan yetib olishga ulguraydimi? Qonun ijodkorlari va

huquqshunoslar raqamli dunyoning virtual realliklariga qanchalik tayyor? Mazkur maqolani yozishdan maqsad biror-bir qonun hujjatini keskin tanqid qilish emas, balki fuqarolik qonunchiligining raqamli davr talablariga muvofiq izchil rivojlanib borishi jarayonini kuzatish, shu boradagi ba'zi shaxsiy mulohaza va takliflarni ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola etishdir. Zero, amaldagi fuqarolik qonunchiligi asosan an'anaviy shaklda tuziladigan bitimlarga mo'ljallangan bo'lib, raqamli mol-mulk, aqlli shartnoma kabi yangi tushunchalarni ham izchil qamrab olish yo'nalishida tabiiy ravishda rivojlanib bormoqda.

So'nggi yillarda kundalik hayotimizda onlayn xarid, elektron shartnomalar va masofaviy xizmatlardan foydalanish odatiy holga aylangan bo'lsa-da, amaliyotda ko'pincha oddiy fuqarolar, hatto ba'zan yosh huquqshunoslar ham elektron shaklda tuzilgan bitimning aniq huquqiy oqibatlari qanday bo'lishini to'liq tasavvur qila olmasligining guvohi bo'lganman. "Roziman" tugmasini bosish ortida qanday majburiyatlar yotadi? Virtual hamyondagi aktivlar qonun bilan qanday himoyalangani? Ana shunday real hayotiy savollar va kuzatishlar meni ushbu mavzuni chuqurroq o'rganishga va fikrlarimni ilmiy jamoatchilik bilan baham ko'rishga undadi.

Ushbu maqolaning maqsadi raqamli davr sharoitida fuqarolik qonunchiligining rivojlanish tendensiyalarini kuzatish, shu asosda ba'zi ilmiy-amaliy mulohaza va takliflarni

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-oktyabrdagi 603-

son qarori bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.



bildirishdan iborat hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi: raqamli mol-mulk va aqli shartnoma tushunchalarining doktrinal tahlili; xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy o'rganish; milliy qonunchilikni yanada boyitish mumkin bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Raqamli texnologiyalarning huquqiy tabiati va ularning an'anaviy tizimlarga ta'siri jahon miqyosida eng ko'p muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Xorijiy adabiyotlarda bu borada keng ko'lamli va fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, taniqli olimlar P. De Filippi va A. Wright² blokcheyn texnologiyasining huquq tizimiga ta'sirini, shu jumladan "kod huquq sifatida" (code is law) kontseptsiyasini chuqur tahlil qilishgan. Ularning fikricha, raqamli kod inson omilini chetlab o'tib, qonunlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlovchi yangi huquqiy reallikni yaratadi. A. Savelyev³ aqli shartnomalarni klassik shartnoma huquqi nuqtayi nazaridan baholab, ularning yuridik tabiati bo'yicha ilmiy jamoatchilikda mavjud turlicha qarashlarni ko'rsatib bergan. U raqamli algoritmlarni an'anaviy shartnomalarning muqobili emas, balki ularni ijro etishning o'ziga xos mexanizmi sifatida baholash

tarafdoridir. K. Werbach⁴ blokcheyn asosidagi "ishonch arxitekturasini"ning fuqarolik muomalasiga ta'sirini, M. Finck⁵ esa aqli shartnomalarning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq huquqiy jihatlarini tadqiq etgan. R. Susskind⁶ onlayn sudlar va raqamli tartibda nizolarni hal qilish institutining istiqbollari asoslagan bo'lsa, J. Fairfield⁷ raqamli mulkchilik masalalarini o'rgangan. MDH davlatlari va O'zbekiston fuqarolik huquqi doktrinasida ham raqamli aktivlarning ob'ekt sifatidagi mohiyati, elektron shartnomalarning shakli va elektron raqamli imzoning yuridik ahamiyati masalalari ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. O'ylaymanki, bu borada olib borilayotgan ishlarni Fuqarolik kodeksining umumiy qismi bilan yanada uzviyrog' bog'lash, ilmiy natijalarni amaliy takliflar shakliga keltirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Metodologiya

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy metod (O'zbekiston, Yevropa Ittifoqi va AQSh tajribasini solishtirish), tizimli-tuzilmaviy metod (Fuqarolik kodeksining tegishli institutlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash), formal-yuridik metod (normalarni talqin qilish) hamda hujjatlarni kontent-tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot ob'ektini O'zbekiston Respublikasining

²De Filippi, P., & Wright, A. (2018). Blockchain and the law: The rule of code. Harvard University Press. P. 35–41.

³Savelyev, A. (2017). Contract law 2.0: 'Smart' contracts as the beginning of the end of classic contract law. Information & Communications Technology Law, 26(2), 116–134.

⁴Werbach, K. (2018). The blockchain and the new architecture of trust. MIT Press. P. 22.

⁵Finck, M. (2019). Smart contracts as a form of solely automated processing under the GDPR. International Data Privacy Law, 9(1), 78–94.

⁶Susskind, R. (2019). Online courts and the future of justice. Oxford University Press. P. 12–15.

⁷Fairfield, J. A. T. (2021). Runaway technology: Can law keep up? Cambridge University Press.



fuqarolik qonunchiligi, tadqiqot predmetini esa raqamli mol-mulk, aqlli shartnoma va elektron bitimlarni tartibga soluvchi normalar tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqot davomida ochiq manbalarda mavjud amaliy holatlar, jumladan elektron platformalar orqali tuzilgan bitimlarga oid tahliliy materiallarni ham kuzatib bordim, bu esa nazariy xulosalarni amaliyot bilan solishtirish, ularni yanada asoslash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Amaldagi Fuqarolik kodeksining fuqarolik huquqlari ob'ektlariga bag'ishlangan bobida⁸ mol-mulk tushunchasi asosan moddiy ashyolar va an'anaviy nomoddiy ne'matlar (masalan, mualliflik huquqi ob'ektlari, qimmatli qog'ozlar) doirasida belgilangan. Ammo bugungi kun voqeirligi bizdan ancha kengroq fikrlashni talab qiladi. Kriptoaktivlar, tokenlar, virtual o'yinlardagi qimmatbaho buyumlar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi tijoriy sahifalar bularning barchasi iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan, sotiladigan va sotib olinadigan yangi turdagi aktivlardir. Agar ushbu ob'ektlarni ham qonunchilikda alohida ko'rsatib o'tmasak, amaliyotda ko'plab chalkashliklar yuzaga keladi. Masalan, raqamli aktivga ega bo'lgan fuqaro vafot etganda, uning merosxo'rlari bu mol-mulkka qanday huquqiy asosda ega bo'lishi kerak? Virtual aktivlar garov predmeti bo'la oladimi yoki sud qarori bilan ularga nisbatan undirish qaratilishi mumkinmi? Bugungi kunda bu savollar ko'pchilik

uchun ochiq va mavhum bo'lib qolmoqda. Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, ko'plab ilg'or yurisdiksiyalar (masalan, Shveytsariya, Germaniya, BAA) allaqachon o'z qonunchiligiga "raqamli aktiv" yoki "raqamli mol-mulk" tushunchasini alohida toifa sifatida kiritishgan. De Filippi va Wright⁹ ta'kidlaganidek, taqsimlangan reyestrda (blokcheyn) asoslangan aktivlarning huquqiy tabiati an'anaviy mol-mulk toifalariga to'liq sig'maydi. Shuning uchun, milliy Fuqarolik kodeksimizda raqamli mol-mulkning huquqiy maqomini aniq belgilash, ularni meros, garov va majburiyatlar ob'ekti sifatida tan olish huquqiy aniqlikni sezilarli darajada oshirgan bo'lar edi.

Aqlli shartnoma (*smart contract*) - bu shartlari inson aralashuvisiz, dasturiy kod ko'rinishida ifodalangan va avtomatik ravishda ijro etiladigan raqamli bitim shaklidir. Oddiy misol: agar siz onlayn platformada ma'lum bir mablag'ni depozit qilsangiz, tizim shart bajarilishi bilan avtomatik ravishda mulk huquqini sizga o'tkazadi, bunda hech qanday uchinchi tomon (bank yoki mediator) ishtirok etmaydi. Ilmiy doiralarda aqlli shartnomalarning yuridik tabiati bo'yicha katta bahslar ketmoqda. Prof. Savelyevning¹⁰ fikricha, aqlli shartnoma mutlaqo yangi yoki mustaqil shartnoma turi emas, balki an'anaviy shartnomani ijro etishning zamonaviy texnologik usuli xolos. Shu nuqtayi nazardan, milliy qonunchilikni ortiqcha atamalar bilan

⁸O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.

⁹De Filippi, P., & Wright, A. Ko'rsatilgan asar. P. 47.

¹⁰Savelyev, A. Ko'rsatilgan asar. P. 121.



murakkablashtirmasdan, fuqarolik kodeksining shartnomani ijro etish shakllariga oid normalarida “avtomatlashtirilgan ijro” tushunchasini joriy qilish eng oqilona yoʻldir. Aqlli shartnomani mavjud shartnoma huquqining texnologik davomi sifatida koʻrish qonunlarimizning moslanuvchanligini taʼminlaydi.

“Elektron hujjat aylanishi toʻgʻrisida”gi qonunimiz¹¹ elektron hujjatga anʼanaviy yozma shaklga teng boʻlgan yuridik kuch beradi. Bu juda yaxshi, ammo bugungi kunda irodani ifodalash shakllari faqat rasmiy elektron raqamli imzo (ERI) bilan cheklanib qolmayapti. Biz har kuni messengerlar (Telegram, WhatsApp), elektron pochta yoki biometrik identifikatsiya (FaceID, TouchID) orqali yuzlab bitimlarga kirishamiz. Ayniqsa yoshlar oʻrtasida onlayn xizmatlardan foydalanishda foydalanuvchi kelishuvlarini oʻqib oʻtirmasdan, shunchaki “roziman” (*I agree*) tugmasini bosish odat tusiga kirgan. Ammo kelajakda biror nizo yuzaga kelsa, ushbu raqamli harakatlarning huquqiy oqibati qanday boʻladi? Dalillash muammosi qanday hal qilinadi? Isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish va onlayn xizmatlar sohasida tomonlar oʻrtasidagi nizolarning oldini olish uchun masofaviy biometrik identifikatsiya hamda platformalardagi click-wrap bitimlarning fuqarolik-huquqiy oqibatlarini qonun darajasida yanada aniqroq tartibga solishimiz zarur.

Raqamli davrda nizolar ham raqamli koʻrinishga kelmoqda. Agar siz internet-doʻkondan 50 ming soʻmlik buyum sotib olgan boʻlsangiz va u sizga yetkazilmagan boʻlsa, siz anʼanaviy sudga ariza berish uchun vaqt va mablagʻ sarflangiz kelmaydi. Sud jarayoni oddiy fuqaro uchun koʻpincha murakkab va vahimali boʻlib tuyulishi bor gap. Susskind¹² tomonidan asoslangan onlayn sudlov modeli (Online Dispute Resolution) aynan mana shunday kam summali va standart fuqarolik nizolarini tezkor hamda arzon hal qilish imkonini beradi. Buyuk Britaniyaning onlayn sud tizimi yoki Xitoydagi internet sudlari tajribasi shuni koʻrsatadiki, elektron tijoratga oid muammolarni uydan chiqmasdan, maxsus onlayn platformalar orqali hal qilish mumkin. Oʻzbekistonda ham bunday raqamli mexanizmlarni sinov (pilot) tartibida joriy etish fuqarolarimiz uchun juda qulay muqobil variant boʻlar edi.

Yana bir nozik masala - texnologiyaning tabiati bilan inson huquqlari oʻrtasidagi ziddiyatdir. Finck¹³ oʻz tadqiqotlarida koʻrsatib oʻtganidek, blokcheyn tizimlarining eng asosiy xususiyati bu maʼlumotlarning oʻzgarmasligi va oʻchirilmasligidir (*immutability*). Biroq, bizning “Shaxsiy maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi qonunimiz fuqarolarga oʻzlariga tegishli maʼlumotlarni oʻchirish yoki tuzatish huquqini beradi. Agar aqlli shartnomaga kiritilgan shaxsiy maʼlumotni blokcheyndan oʻchirib boʻlmasa, qonun talabi qanday bajariladi? Mana shunday

¹¹Oʻzbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi toʻgʻrisida”gi Qonuni, 2004-yil 29-dekabr, 5-modda.

¹²Susskind, R. Koʻrsatilgan asar. P. 58.

¹³Finck, M. Koʻrsatilgan asar. P. 82.



texnologik va huquqiy kolliziyalarni (ziddiyatlarni) oldindan ko'ra bilish va ularni maxsus normalar orqali muvofiqlashtirish kelajakda sun'iy intellekt tizimlarini joriy etishda ham namuna bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish jarayonida ikki xil asosiy yo'nalish ko'zga tashlanadi: Yevropa Ittifoqi raqamli aktivlarni butun mintaqa miqyosida yagona qonunlar bilan qat'iy tartibga solishga intilmoqda, AQShda esa ko'proq sud pretsedentlari va amaliyot orqali shakllangan moschan yondashuv ustunlik qiladi. O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi kontinental (roman-german) huquq oilasiga mansubligini hisobga olsak, biz uchun asosiy tushuncha va institutlarni bevosita Fuqarolik kodeksida mustahkamlash yondashuvi ko'proq mos keladi. Shaxsan men ham aynan mana shu kodifikatsiyalashgan yondashuv tarafdoriman. Qonun darajasidagi aniqlik fuqarolarga va tadbirkorlarga huquqiy barqarorlik beradi, kelajakni bashorat qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa davlatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun ham juda muhim omildir.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, raqamli davr fuqarolik qonunchiligi oldiga inkor etib bo'lmaydigan talablarni qo'yimoqda. O'tkazilgan tahlil va kuzatishlar asosida quyidagi tizimli takliflarni ilgari suramiz:

1) Fuqarolik kodeksining fuqarolik huquqlari ob'ektlariga bag'ishlangan normalarida "raqamli mol-mulk" tushunchasini alohida ob'ekt sifatida aks ettirish hamda uning umumiy belgilarini (elektron shaklda mavjudlik, mustaqil

qiymatga egalik, uzatilish qobiliyati) belgilash;

2) shartnomani avtomatlashtirilgan tarzda ijro etish ("aqli shartnoma" mexanizmi)ning fuqarolik-huquqiy oqibatlarini, xususan, xatolik yuz berganda tomonlarning javobgarligini taqsimlash tartibini alohida norma bilan tartibga solish;

3) elektron shaklda bildirilgan iroda (masofaviy identifikatsiya, biometrik tasdiqlash)ning yozma shaklga tenglashtirilishi shartlarini yanada aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir;

4) kam summali va standart fuqarolik-huquqiy nizolarni onlayn tartibda hal qilish mexanizmini sinov tartibida joriy etish masalasini ko'rib chiqish mumkin;

5) aqli shartnomalarning o'zgarmasligi xususiyati bilan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish talablari o'rtasidagi nozik jihatlarni muvofiqlashtiruvchi maxsus normalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ushbu mulohazalarning e'tiborga olinishi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini raqamli muhitda yanada samarali himoya qilishga, shuningdek milliy fuqarolik qonunchiligini xalqaro tajriba bilan yanada uyg'unlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar raqamli mol-mulkka nisbatan meros huquqi, soliqqa tortish va bank-kredit munosabatlarining o'ziga xos jihatlarni chuqurroq o'rganishga qaratilishi mumkin. Albatta, yuqorida bildirilgan fikr va takliflar shaxsiy kuzatish va mulohazalarim bo'lib, ularni yakuniy haqiqat sifatida emas, balki ilmiy muhokama uchun asos sifatida taklif



etaman. Ushbu mavzu doirasida yanada chuqur tadqiqotlar olib borish, xususan, amaliyotchi yuristlar va sud amaliyoti

bilan yaqindan tanishish orqali ushbu xulosalarni kelgusida yanada boyitish mumkin, deb o'ylayman.

References:

1. De Filippi, P., & Wright, A. (2018). Blockchain and the law: The rule of code. Harvard University Press.
2. Fairfield, J. A. T. (2021). Runaway technology: Can law keep up? Cambridge University Press.
3. Finck, M. (2019). Smart contracts as a form of solely automated processing under the GDPR. *International Data Privacy Law*, 9(1), 78–94.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. (1996). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.
5. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni. (2004).
6. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. (2022).
7. O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni. (2022).
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida qaror.
9. Savelyev, A. (2017). Contract law 2.0: 'Smart' contracts as the beginning of the end of classic contract law. *Information & Communications Technology Law*, 26(2), 116–134.
10. Susskind, R. (2019). Online courts and the future of justice. Oxford University Press.
11. Werbach, K. (2018). The blockchain and the new architecture of trust. MIT Press.